



**1991-yildan
chiqa boshlagan**

Maxsus son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

L **LANGUAGE AND LITERATURE**
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

TOSHKENT VILOYAT CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI - 5 YOSHDA



Ushbu son



Dolzarb mavzu

Og'zaki va yozma nutq –
komillik belgisi

5
bet



Tahlil

Hamid Olimjon lirikasida
epitetning semantik-
stilistik xususiyatlari

16
bet



Tadqiqotlar

Navoiy lirikasida obrazni
ifoda etishda ritm va
mazmun uyg'unligi

49
bet



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODIOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnaldan nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Shartli bosma tabog'i 6.0. «Arial» garniturasini. 10, 11 kegl. «ECO TEXTILE PRODUCT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma ___ Adadi 2100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

1991-yildan chiqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komillik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janrini o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish	8
ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostandart testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqollar badiiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir mushtarakligi	14
TAHLIL	
Mohizar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Ataqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umida Shermatova. Tabaqalashtirilgan adabiyot ta'limida binar ma'ruza metodi	22
O'tkur Islamov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - bebaho ma'naviy boylik!	
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	
Nodira Xoliqova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoliqulova. Hamza Hakimzoda niyoziyning dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'oy Choriyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahoroy Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarining kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kuzatishlar, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiboyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodida ayollar obrazining mushtarak jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'nggi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajan Tadjibayev. Germenevtikada psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofatoy Muydinova. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohigul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining izohli lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Munglig' qalblar kuychisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi leksikasidagi o'zlashma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abduqahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalanishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimzoda niyoziyning ashulalarida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xolikova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - "xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyoziyning she'riyatida erk va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

ПРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ
LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

jurnali

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining
Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Nutqdan o'quvchi fikriy rivojining asosiy o'lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O'quvchining barcha o'quv predmetlaridan materialni o'zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni o'quvchi o'z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o'sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

O'quvchilar nutqini o'stirishning boshqa o'quv predmetlari bilan bog'liqligi:

O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisal-

ari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi. Bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, darak gap, so'roq gap, undov gap singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va turli ko'rgazmali qurollar bu darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Asqarova M. va boshqalar Kichik yoshdagi bolalar nutqini o'stirish. –T.: 2001.
2. Safarova R. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari. –T.: Ma'naviyat, 2003.
3. Muhiddinov.A. O'quv jarayonida nutq faoliyati.
4. G'ulomov A, Qobilova B.. Nutq o'stirish mashg'ulotlari.
5. Mirjalilova S., To'laganova R. Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar. Metodik tavsiyanoma. –T.: 2008.

Nafisa MURATOVA,

Gumanitar fanlar fakulteti

O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

MAKTABDA TARIXIY SO'ZLAR MAVZUSINI O'TISHNING O'ZIGA XOS USULLARI

(“Ulug'bek xazinasi” romani asosida)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'rta maktab, kollej, litseylar adabiyot darslaridagi keltirilgan asarlardagi tarixiy so'zlar Odil Yoqubovning “Yulduzli tunlar” romani misolida tahlil qilinadi, ayrim tarixiy so'zlarning qo'llanishiga oid tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Tarixiy so'zlar, arxaik, “Ulug'bek xazinasi” romani, davlat boshqaruviga oid, harbiy atamalar, fanga oid atamalar, dinga oid atamalar, jomiul ulum, barong'or, vojibul imtisol, Davlatpanoh, dorulmulk...

Annotation: This article analyzes the historical words in the literature classes of high schools, colleges and lyceums on the example of Odil Yakubov's novel "Starry Nights" and gives recommendations on the use of some historical words.

Keywords: Historical words, archaic, the novel "Ulugbek's treasure", public administration, military terms, scientific terms, religious terms, jamiul ulum, barongor, wajibul imtisol, Davlatpanoh, dorulmulk...

Аннотация: В данной статье анализируются исторические слова на уроках литературы лицеев, колледжей и лицеев на примере романа Одила Якубова «Звездные ночи» и даются рекомендации по употреблению некоторых исторических слов.

Ключевые слова: Исторические слова, архаика, роман «Сокровища Улугбека», государственное управление, военные термины, научные термины, религиозные термины, джамиул улум, баронгор, ваджибул имтисол, давлатпанох, дорулмук...

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning adabiyot fani o'quv dasturidan Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romani ham o'rin olgan bo'lib, 9-sinfda ushbu asrni o'rganish uchun 4 soat ajratilgan.

Dastlab o'quvchilarga roman haqida umumiy ma'lumot berilib, keyin ushbu asar bilan tanishtirish lozim. O'quvchilar asarni o'rganar ekan, uning tili ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi asar tarixiy roman bo'lib, unda tarixiy so'zlar talaygina.

Quyida o'rta maktab, kollej, litseylarda tarixiy so'zlar mavzusini o'tishning o'ziga xos usullari to'g'risida fikr yuritimiz. Buni "Ulug'bek xazinasi" romani asosida tahlil qilamiz.

"Ulug'bek xazinasi" romanida qo'llanilgan so'zlar orasida tarixiy so'zlar anchagina uchraydi. Romanning tili g'oyatda shirali, badiiy jihatdan yuksak, teran ma'noga ega. Biz romanda qo'llanilgan tarixiy so'zlarni alfavit asosida, keyin esa ularni anglatgan ma'nosiga qarab alohida guruhlariga ajratib, ularni ham alfavit tarzida joylashtirib, anglatgan ma'nosini imkon darajasida yoritishga harakat qildik. Tarixiy so'zlardan tarqatma materiallar tayyorladik. Bundan no'an'anaviy darslarda foydalanish uchun. Ayrim o'rinlarda tarixiy so'zlar arxaklashgan.

Barong'or – o'ng qanot qo'shinlari

Bakovul – 1. Podshoh, xon va lashkarlarga o'vqat tayyorlash ustida nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi tatib ko'ruvchi mansabdor, bosh oshpaz (XV asr va undan keyingi davr) 2. Oltin O'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori lavozim.

Bakovulboshi – Oshpazlar boshlig'i, oshpazlarustidan nazorat qiluvchi amaldor, bosh oshpaz.

Barkash – Jez yoki misdan tayyorlanadigan va patnis o'rnida ishlatiladigan doira yoki to'rtburchak shaklidagi ro'zg'or buyumi.

Buzrukvor – (forscha) katta, ulug'.

Vojibul imtisol – bo'ysunish lozim bo'lgan hol.

Davlatpanoh – baxt-u saodat ato etuvchi, saodatbaxsh: Podshoh.

Dorulumk – bu yerda turar joy ma'nosida.

Devonxona – devon, Buxoro xonligida sud, qozixona.

Dorug'a – (Mo'g'ulcha darg'a, rais, boshliq) "daroh" – tobe qilmoq. Shahar posbonlari, sardori, bosh mirshab, shahar idorasiboshlig'i.

Darvozabon – (forscha qarovchi)

Jomiul ulum – ilm xazinasi

Istig'for – (arabcha gunohni kechirishni, avf etishni so'rash, qilgungunohlariga tavba izhor etib, "astag'firulloh" deyish

Ilik – qo'l.

Kitobdor – kutubxonachi.

Kanizak – yosh cho'ri, yosh oqsoch.

Ko'hak – tog'

Lashkar – (forscha qo'shin, armiya) davlatning qurolli kuchlarimajmui yoki uning bir qismi: qo'shin, armiya

Mavlono – (arabcha janob, hukmdor, homiy) musulmon sharqida: olim va fozil kishilarni, ustozlarni, yuksak martabali amaldorlarni ulug'lab, ularning nomlarini qo'shib ishlatiladigan faxriy so'z.

Mashvarat – (arabcha kengash, ko'rsatma: yo'l – yo'riq) maslahatlashish.

Munaqqash – (arabcha naqshlangan; zar bilan tikilgan) naqshli, naqshdor.

Mahdud – (arabcha – chegaralangan, atrofi o'ralgan) chegara bilan o'ralgan.

Manhus – (arabcha – badbaht, baxtsiz) baxtsizlik keltiruvchi, shumoyoq.

Mahram – (arabcha man, harom qilingan, haramga kirish huquqibor) Buxoro va Xiva xonligida: saroy amaldorlarining yozishma ishlarini boshqargan lavozimli kishi va uning mansabi.

2. Ishonchli xizmatkor cho'ri.

3. Sirdosh do'st, hamdam.

Mulozim – (arabcha – kerakli, chambarchas bog'liq, ajralmas: doim yonida xizmat qiluvchi)

1. Hokimlarning, amaldorlarning huzurida ularning xizmatida bo'lgan kishi Saroy, mahkama xizmatchi Xodim, xizmatchi

Meshtobchi – (forscha meshda suv tashuvchi) Meshda suv tashuvchi, ko'cha va bozorlarda mesh ko'tarib yurib suv sotuvchi kishi.

Mankuha – nikohlangan, nikohdagi xotin, jufti halol.

Mutakabbirlik – (arabcha – mahrur, kibri, kalondimog') O'zini katta oluvchi, kibr havosi baland, kibri takabbur.

Muqarrabus – sulton – eng yaqin mahram.

Muhobara – (arabcha) urush, jang.

Musallam – (arabcha – yo'l qo'yiladigan, ma'qullangan, tan olingan: sog' – salomat) taslim bo'lgan, tan bergan.

Mashkul kalom – (arabcha so'z bo'lib podshohi) o'tmishda yuksak qobiliyat, badiiy poetik mahorat egasi, shu sohada yetakchi mavqe va obro' – e'tiborga ega bo'lgan shoir-uadiblarga berilgan unvon.

Muqovamat – (arabcha) qarshilik, monelik, qarshi turish.

Navkar – (mo'g'ulcha – no'xo'r – do'st, o'rtoq; er)

1. Harbiy xizmatkor askar.

2. Xizmatkorlar xodim, rais dala begi emas, dala navkari

Nag'al – (arabcha – tagcharm, pashna; taqa) Oyoq kiyimining peshonasiga yoki tagcharmi uchiga qoqiladigan taqacha.

Oshyona – in, uya, uy, boshpana.

Ravzai rizvon – (arabcha – o'tloq, ko'kalamzor; bog')

1. Gulzor, Gulshan

2. Jannat, behisht

3. Xotin – qizlar ismi.

Rutba – (arabcha) daraja, unvon, obro' martaba, lavozim, yaxshi xislat.

Rindona – (forscha – chaqqon, olg'ir; mug'ombir; dovyurak, botir; soxta xudojo'y) 1. Shariat qoidalariga bo'ysinmovchi; erkin fikr yurituvchi, dovyurak. Tasavvufda: botinan xudojo'y, taqvodor bo'lsa-da, zohiran mayxo'r ish-ratparast bo'lib yashovchi kishi.

Rajo – (arabcha – umid, orzu, ishonch. iltimos) rayxonlar, xushbo'y o'simliklar.

Saroy – (forscha – uy, boshpana; qasr; karvonsaroy; yopiq bozor) Xon amir, podshohlarning qarorgohi bo'lib xizmat qilgan hashamatli katta bino, koshona.

Saroybon – (forscha – saroyini qo'riqlovchi qorovul) Xon saroyi qo'riqchisi.

Salahdor – darvozabon.

Saxtiyon – (forscha – oshlangan echki terisi) echki yoki qo'yterisini o'simlik moylari bilan oshlab tayyorlangan yumshoq charm.

Sipoh – (forscha – harbiy birlashma, qo'shin armiya)

Podshoh, xon, amir saroyidagi uzoq xizmat qilgan lavozimli kishi; amaldor Jangchi, askar

Sulton – (arabcha – oliy hukmdor; podsho) Musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni.

Saroparda – (forscha – bosh, asosiy parda) kapa, soy-abonli aravava katta parda, yopinchiq.

Sitora – (forscha – yulduz; taqdir, qismat) yulduz.

Safolat – (arabcha – tag, ostki qism; asos, pastlik)

1. Juda yomon, nochor ahvol, abgorlik

2. Yuramas xatti harakat yoki xulq – atvor rozilik, razolat.

Salohdor – yaxshilik, ezgulik.

Sarbodor – (forscha) boshi dorga osilgan; boshini dorga tikkan.

Salomxona – amirning, xonning salomga yig'ilganlarni yoki ish bilan kelganlarni qabul qiladigan xonasi.

Tamg'a – alohida soliq.

Ulus – (mo'g'ulcha – davlat: el, xalq)

XI XII asrlarda mo'g'ullar davlatida ma'lum bir no'yon-ga (mo'g'ul aslzodasiga) qarashli yerlarda unga tobe holda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta kichik oilalar, urug'lar guruhi.

2. Mo'g'ullar istilosi davrida bosib olingan

hududlardan Chingizxon farzandlariga bo'lib berilgan mulklar, keyinchalik mustaqil davlatlarning nomi Chig'atoy ulusi. 3. El, xalq, haloyiq: odamlar

Ulam – (arabcha olim) islom ilohiyatchilari va huquqchunoslari, shuningdek, diniy muassasalarga, sud mahkamalariga, o'quv yurtlariga mutasaddi bo'lgan barcha islom dini olimlari.

Ulum diniya – (arabcha) ilmlar, bilimlar.

Falakiyot – (arabcha – astronomiya; astronomiyaga aloqadorlik) astronomiya va tabiiy geografiyadan umumiy ma'lumotlar beruvchi o'rta asrlarda rivoj topgan fan, astronomiya.

Xalifa – (arabcha – o'rinbosar; noib)

1. Musulmonlar jamoasi va musulmonlar avlodiining diniy, ayni bir paytda dunyoviy boshlig'i; ruhoniy hukmdor; Muhammad payg'ambarning vorisi, Allohning yerdagi noibi hisoblangan.

2. Buxoro xonligida: shariat aqidalarining bajarilishini tekshirib turuvchi mansabdor shaxs.

Cherik – (mo'g'ulcha serek askar, jangchi: qo'shin, san-skritcha – qo'shin, lashkar). Harbiy yurish vaqtida oilyhukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin.

Chorhari xona – o'rtadagi bitta ustunga tayanuvchi to'rtta xorish katta kvadrat xona, ayvon.

Chanoqiy – shox va saroy ayonlari o'rtasida bo'ladi-gan majlis. **Cho'kichlar** – qattiq toshloq yer, muz va qat-tiq yerni qazish, kovlash uchun ishlatiladigan, uchi o'tkir po'lat asbob, metin. **Chopovul** – 1. Harbiy, XIV – XIX asrlarda O'rta Osiyoda dushman tomonga qo'qqisdan hujum qilib, uni parokandaga uchratishdan iborat taktik usul.

2. Dushman harbiy kuchlari va obektlariga to'satdan-hujum qilib, o'lja keltiruvchi suvoriy guruh.

Shohi sharir – (forscha – podshoh)

Shaqovul – pistirmada turgan asosiy qo'shin

Yasovulboshi – yasovullar boshlig'i.

Yasovul – O'rta Osiyo xonliklari davrida: yuqori mans-abdagi amaldorlarga hizmat qiluvchi qurolli soqchi, pos-bon.

Qozi – (arabcha – ijrochi, amalga oshiruvchi, hukm chiqaruvchi) musulmon davlatlarida hukmdor tomoni-dan tayinlab shariat asosida sud vazifasini bajaruvchi sudya, shariy mahkama raisi.

Qozikalon – (arabcha) katta qozi, bosh qozi

Qushbegi – amir va xonlar saroyida bosh vazir yoki huquqi vazirga teng bo'lgan yirik amaldor, hokim.

Qushchi – bu yerda mohir ovchi ma'nosida.

G'ilof – (arabcha) xat, jild, qoplama, qobiq, po'stloq,

Halhol – oyoqqa taqiladigan oltin xalqa.

Hurovul – oldi qism qo'shinlar, qo'shinning oldingi safi, avangard, ilg'or.

Haram – (arabcha) xos, begonalar kirishi man etilgan joy. Muqaddas, aziz joy. Xotinlar; ayollar (xon yollariga rux-sat berib, haramga kirgan).

O'zbek tilshunosligi mustaqillik yillarida juda katta mu-vaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Tilshunoslikni sistema sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratib shu asosida ish yuritila boshlagach, tilshunoslikning asosiy birliklari, ularning har birining mohiyati yuzasidan yangi – yangi fikr mulohazalar yuzaga kela boshladi.

Bu hol o'zbek adabiyotida yaratilgan romanlarning tilini o'rganishga alohida e'tibor berishni taqozo qiladi. Yuqorida Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida qo'llanil-gan, tarixiy so'zlarning o'rni, leksik-semantik xususiyatlari haqida ana shu nuqtai nazarda fikr yuritdik va shunday xulosaga keldik.

Romanning tarixiy ildizlari juda qadimiy davrlarga borib taqalganligi sababli unda arxaik, tarixiy so'zlar ko'plab uchraydi.

Tarixiy so'zlar romanda ma'lum bir estetik yuklamani bajarib keladi va tinglovchi hamda o'quvchini o'sha qad-imiy davrga yetaklaydi.

Tarixiy so'zlar romanda uning badiiy qiymatini oshirish uchun xizmat qiladi.

Yozuvchining tarixiy roman yozishida qo'llagan epik qoliqlar aynan tarixiy va arxaik so'zlar bilan bog'liq bo'lgan-ligi sababli ularning badiiy estetik ahamiyati yanada yuqori turadi.

Romandagi tarixiy so'zlarni o'rganish, uning ma'nosini anglash tufayli o'quvchilar boshqa millat tarixiy romanlar-ini va ularda ilgari surilgan g'oyalarni chuqurroq anglyadi. Nasriy asarlarning o'ziga xos nafisligini teran his qiladi.

Romandagi tarixiy so'zlar va ularning ma'nolari o'qu-vchilarning nafaqat roman janrini, balki adabiyotimizning kattagina qismi bo'lgan boshqa epik janrlarni o'rganishga ham yaqindan yordam beradi.

"Ulug'bek xazinasi" romani garchand XV – XVI asr-larda istiqomat qilgan xalq hayotini ifodalagan bo'lsa-da unda tasvirlangan ijtimoiy hayot, tob-u taxt uchun kurash-lar, ma'rifatparvarlik, insoniylik kabi tushunchalarning tarixi ming – ming asrlarni o'zida qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "O'zbek adabiy tili tarixi". "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent-1995.
2. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. "Sharq" nashriyoti, Toshkent-1999.
3. Vohidov R. J., Eshonqulov H.R. "O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi" Toshkent- 2006.
4. Yoqubov O. "Tanlangan asarlar". "Sharq" nashriyot Toshkent- 2007.
5. Yo'ldoshev I. "Tilshunoslik asoslari". "Iqtisod moliya" nashriyoti, Toshkent- 2007.
6. "O'zbek tilining izohli lug'ati". "O'zbekiston milliyensiklopediasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2008- yil.
7. Gulom A.F. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent- 1965.